“TO‘NYUQUQ” BITIGTOSHIDAGI MANSAB-MARTABANI IFODALOVCHI LEKSEMALAR

Jo‘raqobilova Madina Xurram qizi
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi 4-kurs talabasi
E-mail: joraqulovamadina768@gmail.com
+998938321557
https://doi.org/10.5281/zenodo.20382702

Annotatsiya. Ushbu maqolada “To‘nyuquq” bitigtoshidagi mansab-martabani bildiruvchi leksemalar tahlilga tortilgan. Maqolada asosan tahlil yetakchilik qiladi. Maqolada mansab-martabalarning turlari ko‘rsatilgan hamda ular haqida ilmiy ma’lumotlar keltirilgan. Mansab-martabani ifodalovchi leksemalarning aynan bitigtoshda keltirilgan namunalari mazmuniy jihatdan muayyan guruhlarga tasniflanib o‘rganilgan.
Kalit so‘zlar: leksema, leksika, qan, qag‘an, qatun, tarqan, lashkarboshi, apa tarqan, yabg‘u, shad, bek.

Abstract. This article analyzes the lexemes denoting socio-political ranks, titles, and social strata within the "Tonyukuk" inscription. The study primarily employs an analytical approach. It categorizes the various types of ranks, titles, and social classes, providing comprehensive scholarly insights into their functions. Furthermore, specific textual examples of these status-signifying lexemes, as preserved in the inscription, are systematically classified into distinct semantic groups and thoroughly investigated.
Keywords: lexicon, qan, qag‘an, qatun, tarqan, lashkarboshi (military commander), apa tarqan, yabg‘u, shad, bek.

Har bir davlat takrorlanmas ijtimoiy hodisadir. U mamlakat miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv apparatiga tayanadi. O‘zbek davlatchiligi boshqaruv sohasi qadim tarixga ega bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida takomillashib borgan. Ammo tarixchilar tomonidan shu narsa ta’kidlanadiki, chingiziylar hukmronligi davrida davlatchilik boshqaruvidagi ko‘p asrlik tajriba va an’analar davom eta olmadi, biroq Amir Temur tomonidan qayta tiklangan davlatchilikning boshqaruv tizimi davlatni saltanat mavqeiga olib chiqdi. Biz tahlil etishga kirishgan “To‘nyuquq” bitigtoshi esa qadimgi turkiy til davridagi mansab-martaba va tabaqa haqida so‘zlovchi manbadir. Ushbu bitigtoshdagi jtimoiy-siyosiy leksikaning masab-martabani ifodalovchi ma’noviy guruhini ichki uchta guruhga ajratish o‘rinli deb topildi. Bular:

1. Davlat bosh hukmdori nomlari.
2. Davlat amaldorlari va harbiy unvon nomlari.

Har bir ichki guruhga mansub so‘zlarning kontekstual ma’nosi hisobga olgan holda tahlilga tortildi. Harbiy unvonlarni ham mansab-martabani ifodalovchi mavzuiy guruhga tegishli deb topildi, chunki harbiy unvonlar davlat amaldorlariga berilgan.

1. Davlat bosh hukmdori nomlari.

Qan - xon: Türk bodun qanïn bulmayïn tabğačda adrïltï, qanlantï, qanïn qodup tabğačqa yana ičikdi /Turk xalqi xonini topolmay, (xo‘p sarson bo‘ldi. Avvaliga) Tabg‘achdan ayrildi, o‘z xoniga ega bo‘ldi, (keyin yana) xonini qo‘yib, Tabg‘achga qayta qo‘shildi (To‘n, 1). Qadimgi turkiy tilda qag‘an bo‘lib, eski o‘zbek tilida xon shaklini olgan ushbu so‘zning qo‘llanish doirasi hamda ma’nolari ko‘lami davrlar o‘tib ancha kengaygan. Bu ma’no kengayishni quyida ko‘rib chiqamiz. Tarixiy asarlarda uning quyidagi ma’nolari uchraydi:

1. Davlat boshqaruvi xonlik bo‘lgan mamlakat hukmdori. Misol uchun, Xiva xonlari unvoni rasman va xalq orasida xon so‘zi bilan atalganligi tarixiy asarlarda uchraydi.

2. Xon so‘zi, asosan, ulus (viloyat) boshliqlari ma’nosini ham ifodalagan.

3. Chingizxon avlodidan bo‘lgan, ko‘chmanchi qabilalar hukmdori.

Buxoro davlati hukmdorlari rasman amir deb atalsa-da, tarixiy asarlarning ayrim o‘rinlarida xon so‘zi amir bilan sinonim sifatida ishlatilgan[1].

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da xon so‘zi izohlab berilgan:

Turkiy va mo‘g‘ul xalqlari hukmdorlari unvoni. Toshkent xoni Mahmudxon ham bizga qarshi qo‘shin tortib kelmoqda emish.

Demak, “To‘nyuquq” bitigtoshida ushbu so‘z davlatning bosh hukmdori ma’nosida qo‘llangan, ammo zamonlar almashishi bilan bu so‘z kengroq ma’no anglata boshlagani ko‘rinib turibdi. Bu so‘zning ma’nosi kengaysa ham ayni yurt boshlig‘i degan sema saqlanib qolgan.

Qağan - xoqon: Anta kisrä täŋri bilig bärtük üčün özüm-ök qağan qïsdïm / O‘shandan so‘ng, tangri bilim bergani uchun, o‘zim-oq xoqonni qistadim (To‘n, 6). Xoqon so‘zi ham xon so‘zi singari davlat boshlig‘i ma’nosida qo‘llangan. “To‘nyuquq” bitigtoshida ushbu ikki so‘z sinonim sifatida ishlatilgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da xoqon so‘zi quyidagicha izohlanadi:

Qadimgi turkiy xalqlar va mo‘g‘ullar hukumatida yirik davlat boshliqlarining eng oliy unvoni va shu unvonni olgan shaxs. Xitoy yilnomalarida xoqonlarning taxtga chiqish marosimi haqida keng tafsilotlar berilgan.

Ushbu so‘z bitigtoshda sinonim bo‘lib qo‘llanganligiga qaramay unda xonga nisbatan ulg‘vorlik semasi mavjudligi seziladi. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, xon va xoqon so‘zlari qadimdan turkiy hamda mo‘g‘ul xalqlarining yirik qabila birlashmalari sardori yoki davlat boshlig‘i ma’nosida ishlatilgan. Xoqon termini birinchi marta eramizning 312-yiliga oid xitoy yilnomalarida qayd qilingan[2]. Tadqiqotchilarning guvohlik berishicha, xon va xoqon leksemalari aslida xitoycha bo‘lib, “kuan”, ya’ni “oliy hukmdor” va “ke-kuan”, ya’ni “ulug‘ xon”[3] ma’nolarini ifodalagan. Turkiy xonliklar davrida bu ikki unvon o‘zaro sinonim sifatida qo‘llangan bo‘lsa ham muayyan farqlar borligi kuzatiladi. Bu farqni anglab olish uchun Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asariga yuzlanamiz. “Devonu lug‘otit turk”da qayd etilishicha: “Afrosiyobning bolalari ham (xon) deb yuritiladi. Afrosiyob (xoqon)dir[4]. Demak, xon so‘zi muayyan bir qabilaning boshlig‘i ma’nosida qo‘llangan bo‘lib, keyinchalik xoqon so‘zining sinonimi sifatida ishlatilgan. Mahmud Koshg‘ariy bergan ma’lumotga asoslanadigan bo‘lsak, xoqon leksemasi xonlarning xoni ma’nosini anglatgan, chunki Afrosiyob o‘g‘illarini xon, o‘zini esa xoqon deya atalganligi bunga dalil bo‘la oladi. Turkiy davlatchilikda otadan so‘ng uning o‘g‘illari mamlakat taxtiga o‘tirishi tabiiy holat hisoblangan.

Qatun - xonim, xotin: Qatun yo'q bolmïs ärti, anï yoğlatayïn, tädi / Xotun o‘lgan edi, - Uning marosimini o‘tkazay - dedi (To‘n, 31). Xonim, ya’ni malika ma’nosida qo‘llangan. Ushbu so‘zning yasalishiga oid ba’zi ma’lumotlarni B.Abdushukurovning Kul tigin yodgorligi tadqiqiqa bag‘ishlangan monografiyasida uchratamiz. Turkshunoslikda qatun//xatun so‘zi “qat, qavat, qatlam” ma’nosidagi qat leksemasi bilan -(u)n/-(i)n affiksining birikuvidan hosil bo‘lgan degan fikr mavjud. Qatun so‘zini “qat, qavat, qatlam” ma’nosidagi qat o‘zagidan yasalgan deb bo‘lmaydi. Mabodo shunday faraz qilungidek bo‘lsa, unga qo‘shilayotgan qo‘shimcha singarmonizm qonuniga muvofiq -un emas, -in shaklida

[1] Ўразбоев А.Д. Огаҳийнинг “Риёз уд-давла ” асарида ижтимоий-сиёсий лексика. Филол фан. ном... дисс. – Т., 2009. – Б. 17.

[2] Ўзбек Совет Энциклопедияси. -Т. 12. -Т.: ЎзСЭ, 1979. -Б. 387.

[3] Фасмер М. Этимологический словарь русского языка. -Т. 4. -М., 1973. -С. 221; Баскаков Н.А. Тюркизмы социальная терминология в "Слове о полку Игореве"//Turkologica (К 70-летию академика А.Н.Кононова). -Л., 1976. -С. 225-226.

[4] Кошгарий М. ДЛТ. -Т. 3. -Т.: Фан, 1963. -Б. 172.

qo‘shilmog‘i lozim edi. Shuni nazarda tutganda, qatun bir morfemadir. Uni qat-un shaklida ma’noli qismlarga ajratish maqsadga muvofiq emas. Qadimgi qatun shaklida ma’noli xatun, hozirgi o‘zbek tilida ma’no va fonetik jihatdan o‘zgarib xotin ga aylangan. L.Budagov qatun shaklini qirg‘izcha, turkcha, xatun shaklini tatarcha, qozoqcha deb belgilab, oltoy tilida qattïn shaklida ishlatilishini, ko‘plikda qadïttar shaklini olishini ta’kidlaydi (O‘TEL,I,402)[5]. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida bu so‘z haqida quyidagi fikrlarni o‘qiymiz: “XOTUN, qatun – xoqon xotini va hukmdor ayolga nisbatan qo‘llanilgan turkiy unvon. Dastlab, hunlar davrida (miloddan avalgi 3 – milodiy 3-asrlar) qayd etilgan. Turk xoqonligi davrida (6–8-asrlar) xoqondan keyin 2-darajada turuvchi unvon. Xotunlar to‘ra asosida xoqon bilan birgalikda hokimiyatni boshqarishgan. Tarixda turkiy hukmdorlarning bir necha xotini bo‘lganligi, faqat ulardan biri – bosh Xotun bo‘lganligi ma’lum. Xoqon vafot etganda o‘rnini egallaydigan o‘g‘li kichik yosh bo‘lsa, Xotun uning nomidan hokimiyatni boshqargan.

Harbiy safar chog‘ida ham Xotunlar hukmdorlar yonidan joy olganlar, shuningdek, hukmdor saroyda bo‘lmagan paytda saroyni boshqarib, elchilik hay’atlarini qabul qilganlar”[6]. Qadimda malikalar ham xondan keyingi shaxs sifatida qaralgan. Bunga bir qancha dalillar borki, ba’zi tangalarning bir tomoniga xonning va ikkinchi tomoniga malikaning tasviri tushurilgan. Demak, bu so‘zni ma’no va shakl jihatidan ma’lum o‘zgarishlarga uchragan deya olamiz. Ma’nosiga ko‘ra qatun\xotun so‘zlari dastlab unvon bo‘lgan bo‘lsa, vaqt o‘tib bu so‘z ayol kishi semasida foydalana boshlandi.

2. Davlat amaldorlari va harbiy unvon nomlari.

Davlatni boshqarishda xonning yonida turuvchi bir qancha amaldorlarning roli ham muhim sanalgan. Negaki davlatni idora etuvchi amaldorlar xalqning ijtimoiy holatiga javobgar shaxslar sanalgan. Qadimgi turkiy xonliklarda mamlakatning tinchligi uchun jang qilish zarur tadbirlardan biri bo‘lgan, chunki bugun ham davlat mudofaasi o‘z muhimligini hech yo‘qotgani yo‘q.

Tarqan - unvon: Bilgä Toñuquq boyla bağa tarqan /Bilga To‘nyuquq bo‘yla bag‘a tarqan (To‘n, 6). Manbalarni qiyoslasak, tarqan so‘zi tarxon yoki darxon tarzida ham uchrashi ko‘zga tashlanadi. Mamlakatda soliqlardan ozod qilingan amaldorlar uchun berilgan unvondir.

Ayğučï - kengashchi: qağanï alp ärmis, ayğučïsï bilgä ärmis, qačan äŋirsär, ölürtäči kük / xoqoni alp ekan, kengashchisi dono ekan, g‘azablangudek bo‘lsa, o‘ldiradigan ko‘rinadi (To‘n, 21). Bu unvon haqida Dadaboyevning maqolasi orqali batafsil tanishish mumkin. Xoqonlikda harbiy maslahatchi mansabi mavjud bo‘lib, u ayg‘uchi istilohi bilan nomlangan. Eltarish qag‘an, Qapag‘anxon, Bilga qag‘an hukmronligi zamonida bu mas’uliyatli lavozim Ikkinchi Ko‘k Turk xoqonligining tarkib topishida ulkan xizmatlar qilgan dono siyosatchi, yetuk diplomat, mohir sarkarda To‘nyuquqqa muyassar bo‘lgan[7]. Ustozning bu ma’lumotlaridan shu narsa anglashiladiki, kengashchi bu maslahatchidir. Davlat unvonlari orasida maslahatchi unvonining borligi o‘sha davrda ham maslahat berish muhim vazifa sanalganligidan darak beradi va bu unvon hammaga ham nasib bo‘lmaganligi esa oqil, dono kishining roli muhimligini ko‘rsatadi.

Sü bašï - lashkar boshi: Sü bašï Inäl qağan, tarduš šad barzun, tädi / Lashkar boshi Inal xoqon, tardush shadi borsin,” - dedi. (To‘n, 31). Bu unvon ham dong‘i chiqqan sarkardalarga berilgan hisoblanadi. Dadaboyevning yuqorida qayd etilgan maqolasida Sü bašï unvoni haqida quyidagicha ma’lumot beriladi. Yirik sarkardalar, iste’dodli qo‘shin qo‘mondonlariga sharafli subashi unvoni berilgan. Bu oliy harbiy unvon saltanat oldidagi buyuk xizmatlari, lashkarboshilik salohiyati bilan dong taratgan sarkardalargagina nasib

[5] Abdushukurov B. Kul tigin bitigtoshi va o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, 2025. -B. 34.
[6] Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. 9-жилд. – Б.638.
[7] Dadaboyev H. Ko‘k turk xoqonligida harbiy qurilish // Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2000. – B. 35.

etgan. Ikkinchi ko‘k Turk xoqonligida Kul tegin, Mo‘g‘ilon, Inal qag‘an (Qapag‘axonning ukasi) singari askarboshilar subashi unvoni bilan sharaflangan[8]. Demak, bu unvon shunchaki lashkarga bosh bo‘lish uchungina berilmas, balki qo‘shinni to‘g‘ri yo‘naltira oladigan sarkardalarga taqdim etilgan.

Apa tarqan - bosh qo‘mondon: Bög(ü) qağan baŋaru anča ayïdmïs, apa tarqanğaru ičrä sab ïdmïs / Bo‘gu xoqon menga shunday aytib yuboribdi, apatarxonga (bosh qo‘mondonga) maxfiy xabar yuboribdi (To‘n, 34). Kontekstga qaraydigan bo‘lsak, bu lavozim ham qo‘shinga bosh shaxsni ifodalaydi. Lashkarni boshqaruvchi ushbu lavozimdagi kishi xoqonning xos odamlaridan biri ekanligi “To‘nyuquq” bitigtoshidagi parchada ifodalanib turibdi.

Yabğu - unvon, harbiy sarkarda sifatida qo‘shinning o‘ng qanotiga sardorlik qilgan: Yaydïmïz, qağanïn tutdïmïz, yabğusïn, šadïn /Tor-mor qildik, xoqonini tutdik, yabg‘usini, shadini (To‘n, 41). Yabg‘u unvoni haqida Dadaboyevning maqolasida to‘liq ma’lumotlar uchraydi. Xitoy muarrixlarining ta’kidlashicha, Buminning o‘g‘li Mug‘onxon davrida yabg‘u (Xitoy obidalarida – shexu) hukmdordan so‘ng davlatdagi mavjud oliy harbiy-ma’muriy mansablarning birinchisi tarzida faoliyat ko‘rsatgan. G‘arbiy Ko‘k Turk xoqonligi (582–630)da yabg‘u davlat boshlig‘i va oliy qo‘mondon ma’nosini bildirgan. IX asr muarrixi Abu Ja’far Muhammad at-Tabariyning “Tarixi Tabariy” asarida yozilishicha, Movarounnahrning Qutayba ibn Muslim tomonidan zabt etilishi paytida Tohariston hukmdori Ash-Shaz jabg‘u unvonini egallab turgan. E’tirof etish kerakki, Birinchi Ko‘kturk xoqonligi (552–630) barpo bo‘lgunga qadar, Ashina urug‘iga mansub qadimiy turklar elida eng oliy harbiy-ma’muriy unvon yabg‘u sanalgan.

Šad - harbiy unvon: uduzuğma uluğï šad ärti / xushyor qiladigan ulug‘i shad edi (To‘n, 5). “To‘nyuquq” bitigtoshida shad harbiy unvoniga dono sarkarda To‘nyuquqning o‘zi loyiq bo‘lganligi aytiladi. Xitoy manbalarida ham ushbu unvon haqida ma’lumotlar uchraydi. Unga ko‘ra shad unvoni xitoy solnomalarida Sha tarzida qayd etilgan. Bu unvonning tarixi haqida ham yuqorida subashi, yabg‘u hamda ayg‘uchi haqida ma’lumot bergan maqoladan batafsil bilib olamiz. Shad yuqori harbiy-ma’muriy rutbalardan biri bo‘lgan.

Bäg (turkiy) - bek, hukmdor: Ol sabïğ äsidip bäglär qopun / O‘sha xabarni eshitib, beglar yoppasiga (To‘n, 36). Bek so‘zi bugungi kunda ham yurtimizning ma’lum hududlarida qo‘llaniladi. Ushbu so‘z Bekmuhamedovning “Tarix terminlari izohli lug‘ati”da batafsil izohlanadi.

Mansab-martaba va harbiy unvon nomlari kichik guruhiga kiruvchi leksemalarni matndagi ma’nosi va manbalardagi ma’lumotlar asosida tahlil qilishga harakat qildik. Bunda ayrim ma’lumotlarni tahlilga kiritish uchun qadimgi bitigtoshda qo‘llangan ijtimoiy-siyosiy so‘zning bugungi kundagi muqobil variantidan foydalanildi. Ayrim o‘rinlarda so‘zning tarixiy taraqqiyot jarayonida ma’no va shakl o‘zgarishiga uchraganligi yoritib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdushukurov B. Kul tigin bitigtoshi va o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, 2025. – B. 34.
2. Dadaboyev H. Ko‘k turk xoqonligida harbiy qurilish // Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2000. – № 3. – B. 35.
3. Isxoqov M., Sodiqov Q., Omonov Q. Mangu bitiglar: O‘rta Osiyo xalqlarining eng eski yozma yodgorliklari bo‘yicha tadqiqotlar. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2009. – 120 b.
4. Кошгарий М. Девону луғотит турк (ДЛТ). Т. 3. – Тошкент: Фан, 1963. – Б. 172.

[8] Dadaboyev H. Ko‘k turk xoqonligida harbiy qurilish // Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2000. – B. 35.

5. Ўразбоев А.Д. Огаҳийнинг “Риёз уд-давла” асарида ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 17.
6. Ўзбек Совет Энциклопедияси. Т. 12. – Тошкент: ЎзСЭ, 1979. – Б. 387.
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 9-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – Б. 638.
8. Фасмер М. Этимологический словарь русского языка. Т. 4. – Москва: Прогресс, 1973. – С. 221; Баскаков Н.А. Тюркизмы и социальная терминология в "Слове о полку Игореве" // Turkologica (К 70-летию академика А.Н. Кононова). – Ленинград: Наука, 1976. – С. 225-226.